



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI

O‘ZBEK SAYILLARI VA AYRIM TURK BAYRAMLARINING ETNOLINGVISTIK HAMDA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

ETHNOLINGUISTIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF UZBEK FESTIVALS AND SOME TURKISH HOLIDAYS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/AXSG5535

Uluqov Nosirjon,

Namangan davlat universiteti

o‘zbek tilshunosligi kafedrasida professori,

filologiya fanlari doktori

onomastika@mail.ru

Solixodjayeva Xavasxon,

o‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Onomastikada bayram, festival, xotira kunlari va mana shunday marosim hamda tadbirlarning atoqli nomlari majmui geortonimiya hisoblanadi. Geortonimlar sirasiga sayillarning nomlari ham kiradi. Nomoddiy madaniy merosimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va doimo har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib yangilanib boradigan an’analaridan biri xalq sayillari hisoblanadi. Ajdodlarimizning tabiat va koinot haqidagi eng qadimiy tasavvurlari, e’tiqodiy qarashlari, dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligi bilan bog‘liq turli xil urf-odatlar, an’anaviy xalq taqvim amallari, serhosillik g‘oyasini o‘zida ifodalovchi agrar marosimlar zahirida yuzaga kelgan Navro‘z bayrami – yilboshi sayili, tabiatning barhayotligi to‘g‘risidagi mifologik ishonchlar asosida shakllangan Gul sayillari, Boychechak sayili, Sumalak sayili, shuningdek, hosil bayramlari va sayillari asrlar davomida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelingan. Xalqimiz bunday sayillarni hamisha ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, takomillashtirib, badiiy jihatdan sayqallantirib, bugungi kunga qadar taraqqiy ettirib kelmoqda. Maqolada o‘zbek geortonimiyasiga mansub sayil nomlari va turk xalqining lola festivalining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili berilgan.*

Kalit so‘zlar: *geortonim, geortonimiya, sayil, bayram, etnolingvistik, lingvokulturologik.*

Annotation. *In Onomastics, the set of names of holidays, festivals, memorial days, and similar ceremonies and events is considered geortonymy. Geortonyms also include the names of walks. One of the most viable, ancient, honorable and constantly renewed traditions of our intangible cultural heritage, energized by the*



creative thinking of each generation, is folk walks. The Navruz holiday, which arose on the basis of the most ancient ideas of our ancestors about nature and the universe, their religious views, various customs related to farming and animal husbandry, traditional folk calendar practices, agrarian rituals expressing the idea of fertility, arose – the New Year Walk, Gul Walk, Boychechak Walk, Sumalak Walk, as well as harvest festivals and walks formed on the basis of mythological beliefs about the survival of nature, have been traditionally held for centuries. Our people have always cherished, improved, artistically refined and developed such festivals to this day. The article presents ethnolinguistic and linguoculturological analysis of the names of festivals belonging to Uzbek georonymy and the tulip festival of the Turkish people.

Keywords: *georonym, georonymy, walk (sayil), holiday, ethnolinguistic, linguocultural.*

Sayil so‘zi tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra arabcha bo‘lib, asli sayr, piyoda yurish, kezish lug‘aviy ma‘nolarini anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sayil so‘zi yilning ma‘lum fasllarida o‘tkaziladigan sayr-tomoshalar ma‘nosida qo‘llanadi. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklarning ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlangan, avloddan avlodga o‘tib, takomillashib, bebaho merosga aylangan xalq sayillari ko‘p. Sayillar xalq xayotidan mustahkam o‘rin olib, bugungi kungacha saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik erishgandan so‘ng xalq sayillari mazmunan o‘zgarib, ko‘proq milliy tus oldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrda “2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli qarorining 21-bandida ham madaniyat va istirohat bog‘larida “*Gul sayili*”, “*Qovun sayili*”, “*Uzum sayili*”, “*Non sayili*”, “*Qovoq sayili*”, “*Palov sayili*”, “*Asal sayili*” singari sayillarni o‘tkazish belgilangan.

O‘zbek xalq sayillarining eng diqqatga sazovor tomonlaridan biri ularning tabiat va mehnat bilan bog‘liqligidir. O‘zbek xalq sayillarining bir qator qadriyatlari mavsumiy mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Qadimdan ajdodlarimizning har bir faslga xos an‘analar tizimi shakllanib kelgan. Ular orasida erta bahorda – mehnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda – hosil yig‘ishtirishdan avval, kuzda – hosil to‘plangandan so‘ng va qishda – dalalar “uyquga ketib” mehnatkashlarning bo‘sh vaqti ko‘payib, madaniy dam olishga bo‘lgan ehtiyoji tufayli uyushtiriladigan odat, marosim, sayil, bayramlar xalq hayotida muhim hodisa hisoblangan.

O‘zbek lingvomadaniyatida asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an‘anaviy 50 dan ziyod xalq sayillari faol kuzatiladi.

O‘zbek xalqiga xos sayillarni mavzuiy jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:



1. **Gul sayillari:** *Atirgul sayili, Behi guli sayili, Boychechak sayili, Chuchmoma sayili, Lola sayili, Lolaqizg'aldoq sayili, Sunbula sayili, Gul sayili, O'rik guli sayili, Qizil gul sayili* kabi.
2. **Meva sayillari:** *Anjir sayili, Anor sayili, Asal sayili, Gilos sayili, Mayiz sayili, Olma sayili, Uzum sayili, O'rik sayili, Tut sayili* kabi.
3. **Qush sayillar:** *Qushlar sayili (Qushlar bayrami), Bedana sayili, Kaptar sayili* kabi.
4. **Tabiat hodisalari bilan bog'liq sayillar:** *Birinchi qor sayili, Suv sayili, Qum sayili, Oqshom sayili* kabi.
5. **Taom va eguliklar sayillari:** *Taom sayili, Kabob sayili, Palov sayili, Sumalak sayili, Tuxum sayili, Non sayili, Asal sayili* kabi.
6. **Poliz sayillari:** *Handalak sayili, Qovun sayili, Tarvuz sayili, Qovoq sayili* kabi.
7. **Bayramlar bilan bog'liq sayillar:** *Navro'z sayili, Bahor sayili, Hayit sayili* kabi.
8. **Muayyan shaxslar bilan bog'liq sayillar:** *Kelin sayili, Ayollar sayili, Yoshlar sayili* kabi.

Xalq sayillari ma'naviy-ma'rifiy, didaktik mohiyatga ega bo'lib, yosh avlodni ekologik madaniyatini shakllantirish, xususan, tabiatni va uning boyliklarini qadrlash, avaylab-asrash, e'zozlash, go'zalliklaridan zavqlanish, mehnatni qadrlashga, insoniylikni ulug'lashga o'rgatadi.

Lola sayili va unga xos an'analar hozirga qadar faol yashamoqda. [Пещерева, 1927: 374-376]

O'zbek tili geortonimiyasida sayil nomlari alohida bir guruhni tashkil etadi. Ular mavsumiy, hududiy xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Biz yuqorida tahlilga tortgan gul bilan bog'liq xalq sayillari mavsumiy jihatdan bahor mavsumiga, areal jihatdan ma'lum hududga xos bayramlardir.

Navro'z sayili tabiat va jamiyatdagi yangilanishni o'zida ajoyib tarzda ifoda etgan udumlar majmuidir. Navro'z sayili o'z ichiga *Qizilgul sayili* (Xorazm va Buxoro viloyatida), *Lola sayili* (Qo'qon va Toshkent atroflarida), *Sunbula sayili* (ba'zi tog'li tumanlarda, jumladan, Chust tumanida va boshqa hududlarda), *Boychechak sayili* kabi gul sayillarini ham oladi [Корабоев, 1991: 29-31]. Demak, *Navro'z sayili* geortonimi lingvokulterema sifatida milliy bayram bilan bog'liq hududiy an'analarni umumlashtirib ataydi, ifodalaydi, davrlar davomida saqlanishiga xizmat qiladi.

Navro'z bilan bog'liq gul sayillarining eng qadimiysi va keng tarqalgani, tarixan magik xarakterdagi *Boychechak sayili* yoki *Boychechak xabari* marosimi qadimdan o'tkazib kelingan. Sayil davomida bolalar bir dasta bahorning ilk darakchisi – boychechakni uzun xodaning uchiga bog'lab, uni ko'tarib qishloq aylanganlar. Keksa va kasal odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini tuyganlar. Sog'-omon Navro'zga yetib kelganliklariga shukrona keltirib: “*Omonlik, omonlik, hech*



ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik! Og'irligim yerga, yengilligim o'zimga!”, – deya duo va ezgu niyat qilganlar.

“*Boychechak sayili*” yoki “*Boychechak xabari*” marosimi O'zbekistondagi an'anaviy tarzda gul sayillarining eng qadimiysi va keng tarqalgani hisoblanadi. Zarafshon daryosi sohilida istiqomat qiluvchi aholi har yili erta ko'klamda ilk boychechaklar ochilishi bilanoq “*Boychechak gulgardoni*” nomli an'anaviy sayilni o'tkazish uchun dala-qirlarga oshiqishgan. O.A.Suxareva Samarqand shahri yaqinidagi qishloqlardan birida boychechak bilan bog'liq marosimni quyidagicha ta'riflaydi: “boychechak chiqqanligining ilk darakchilari bolalar hisoblangan. Odatda, o'g'il bolalar to'p-to'p bo'lishib dalaga chiqishadi va qor ketgan o'ngirlarda ochilib yotgan boychechaklarni terishadi. Ular bahor nafasi ufurib turgan boychechaklardan jajjigina guldasta yasashib, qishloqqa qaytib kelishadi va boychechak qo'shig'ini kuylagancha uyma-uy kirib chiqishadi. Keksalar, kasalmand kishilar boychechakni ko'zlariga surtishib, bolalarga non, qand, shirinlik hadya etadilar” [Cyxapeva, 1986: 31-32].

O'tmishda Markaziy Osiyo xalqlari, chunonchi, qadimgi xorazmlilar, sug'dlar va baqtriyaliklar hayotida ham gul bayramlari eng ulug' tantanalardan sanalgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Xorazm va Buxoroda *qizilgul*, Farg'ona vodiysi va Toshkent atroflarida *lola*, Chust va Denov tumanlarida *sunbula*, boshqa joylarda *boychechak* sayillari uyushtirilgan. Gul bayramlari dunyoda keng tarqalgan ezgu an'analardan biridir. Jahondagi bir qancha mamlakatlarda gullarga bag'ishlangan, jumladan, Gretsiyada – *sunbul*, Yaponiyada – *xrizantema*, Fransiyada – *marvaridgul*, Hindistonda – *atirgullarga* bag'ishlangan maxsus bayramlar mavjud. Gul bayramlarining mazmun-mohiyati bir-biriga yaqin bo'lsa-da, biroq ular o'ziga xos usul, rang-barang shaklda, milliy va mahalliy xususiyatlar bilan uyg'un tarzda uyushtiriladi.

O'zbekistonda ham yangi tipdagi gul bayramlari yaxshi taraqqiy etmoqda, chunki bu yangi bayramning rivojlanishi uchun o'zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo'lgan, tabiat qo'ynida o'tkaziladigan gul bilan bog'liq sayillar: “*Lola sayili*”, “*Sunbula sayili*”, “*Guli surx*” (“*Qizil gul*”) *sayili* kabi tarixiy va qadimiy an'analar zamin bo'lgan.

L.A.Tulsevaning ma'lumotlariga qaraganda, Nurota qir-adirlarida gullar ochilgan mahalda “*Qizil gul sayili*”, Farg'ona vodiysida “*Lola sayili*”, Samarqandda mevali daraxtlar, jumladan, behi gullaganda “*Behi guli sayili*”, Zarafshon vodiysida “*Boychechak gulgardoni*”, Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtda “*Gulgardoni bulbulxon*” kabi bayramlar uyushtirilgan [Тулъцева, 1985: 107-108; Қорабоев, 1991: 30]. Hozirda ham bu bayramlar nishonlanadi.

Zamonaviy gul bayramlari keng ma'noda tabiat go'zalliklarini muhofaza qilish, aholi turarjoylarini obodonlashtirish, ularni bog'-rog', gulzor, chamanzorga aylantirish, ya'ni tevarak-atrofni chiroyli qilishga ko'mak beruvchi qadriyatlaridir. Gul bayramlari, gulga bag'ishlangan shodiyonalar – go'zallik ramzidir.

Turkiyada gul bayramlariga monand *Istanbul lola festivali (Istanbul Lale Festivali)* mashhur.



Lolalar Onado'liga O'rta Osiyoning Pomir tog'i turklari tomonidan olib kelingan. Lola turk madaniyatining eng muhim timsollaridan biri hisoblanadi. Bu hududlarga birinchi marotaba lola Vizantiya imperiyasi davrida kelgan. Turk madaniyatida muhim o'rin tutgan bu ajoyib gul XV asrning ikkinchi yarmida Avstriyaning Vena shahriga, so'ngra Niderlandiyaga olib kelingan va shu tariqa Yevropaga tarqalgan. Gollandiyada tezda katta shuhrat qozongan lolalar Kanada poytaxti Ottavaga olib kelingan va dunyoga mashhur bo'lgan. Hozirda lolaning asl makoni deb yuritiladigan Gollandiyaga lolalar aynan Vizantiyadan olib kelingan.

Lolalar, asosan, XVI asrda Usmoniylar imperiyasining poytaxti Istanbulda yetishtirilgan va butun shahar bo'ylab manzarali gullar sifatida ekilgan. Lolalarga bo'lgan bu ishtiyoq Sulaymon shoh hukmronligi davrida keng tarqalgan bo'lib, Istanbulda uning 800 xil tur va navlari yetishtirilgan, ularning har biri turk tilida o'z nomiga ega bo'lgan. Jumladan, shaharning ramziga aylangan Istanbul lolasi ham o'sha davrda paydo bo'lgan. XVIII asrga *Lola davri* nomi berilgan.

Lolalar festivali ko'p asrlik urf-odatlariga hurmat belgisi sifatida Istanbul meri tomondan birinchi marta 2006-yilda o'tkazilgan. Shundan beri Lolalar festivali turk lingvomadaniyati va geortonimiyasida alohida o'rin tutadi. Har yili aprel oyida o'tkaziladigan Lolalar festivali Turkiyaga ko'plab sayyohlarni jalb qiluvchi butun jahonga ma'lum gullar bayramiga aylangan.

Lolalar mavsumi Istanbulga bahor kelganidan darak beradi. Har yili aprel oyida shaharning eng mashhur joylari rang-barang bahor lolalari bilan burkanib, butun dunyoda yuksak qiziqish uyg'otadi. Turkiyaning eng yaxshi landshaft dizaynerlari Istanbul aholisi va mehmonlarini lolalarning turli navlaridan tuzilgan yorqin kompozitsiyalar bilan ajablantirishga harakat qiladilar. Istanbul shahrining *Sulton Ahmad masjidi*, *Ayya Sofiya muzeylari maydoni* va bog'larida tabiiy "lola gilam"lari mahalliy aholini ham, chet ellik mehmonlarni ham hayratga soladi. Xuddi shunday manzaralarni shahardagi *Amirg'on bog'i*, *Gulxona bog'i*, *Yulduz bog'i*, *So'g'anli botanika bog'i*, *Beykoz bog'i*, *Buyuk jomlija bog'i*, *Kichik jomlija bog'i*, *Fethiposho bog'i* va *Hidiv Pavilion bog'larida* ham kuzatish mumkin. Festivalning shukuhi uning "*Istanbul lolalar bilan uchrashmoqda*" shiorida yorqin ifodalangan.

Bugungi kunda Onado'lida ham juda ko'p lola navlari yetishtiriladi. Eng hayratlanarlilari egilgan lola navi "Yig'layotgan kelin" deb ataladi. Dunyo bo'ylab boshi quyiga egilgan shu lolalarning 167 turi tarqalgan. Ulardan 20 tasi endemik bo'lib, 43 turini Turkiyada uchratish mumkin [<https://qalampir.uz/news>].

Lola tasviri XII asrdan beri hunarmandchilikda bezak naqshlari namunasi sifatida qo'llanila boshlangan. Bu go'zal, betakror va rang-barang gullar Usmoniylar davrida she'r, farmon, hikoyalar va miniatyura rasmlarining asosiy mavzusi sifatida urfda bo'lgan. Lola naqshlari masjidlar, qabr toshlari va saroy bezaklarida, shuningdek, gilam hamda mato naqshlarida, kaftan va sep sandiqlarida, hatto, tangalar, jangovar dubulg'alarda ham keng qo'llangan.

Nav va xillari ko'payib borgani sari lolalar Turkiyaning an'anaviy ramziga aylangan va turli rangdagi lolalar turk lingvomadaniyatida turfa ma'nolar kasb



etgan. **Qizil lolalar sevgi, oq lolalar esa poklik va xokisorlik, binafsharang lolalar olijanoblik va romantika, sariq ranglisi esa quvonch, noyob qora lola pinhonlik, qo'l yetmaslik, chiziqli lola esa betakror go'zallik ramzidir.**

Sunbula sayili – chustliklar, qolaversa, Namangan viloyati xalqi uchun milliy qadriyat va an'anaga aylangan marosimlardan biri. *Sunbula sayili* Namangan viloyatining Chust tumanida aprel oyining oxiri, may oyining birinchi haftasida nishonlangan. Ko'pincha, mazkur sayil 2-may kuni o'tkazilgan.

Geortonimning lug'aviy asosiga e'tibor qaratsak. *Sunbul* (a. boshqoq). Piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga o'xshash uzun bargli o'tsimon manzarali o'simlik va uning g'uj bo'lib ochiladigan xushbo'y, chiroyli guli. *Sunbulning* so'zlashuv tilida *sumbul* fonetik varianti ham qo'llanadi [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023: 759]. *Sunbuldan* tashqari *sumbulsoch* o'simligi ham bor. *Sumbulsoch bot.* Soya-salqin joylarda, suv sirqirab turadigan ungurlarda, buloqlar atrofida o'sadigan ko'p yillik manzarali o't.

Sumbulsoch ilmiy manbalarda *suvsumbul, zuhra sochi* ham deb ataladi. *Sumbulsoch* – chin qirqquloqlarga mansub ko'p yillik manzarali o't. Atlantika okeani sohillarida, Qrim, Kavkazda, O'zbekistonda soya-salqin joylarda, tog', soy bo'ylarida uchraydi [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004: 136].

Sunbul sayili geortonimiga ana shu soya-salqin joylarda, suv sirqirab turadigan ungurlarda, buloqlar atrofida o'sadigan ko'p yillik manzarali o'tni ifodalovchi *sumbulsoch* so'zi lug'aviy asos bo'lgan. *Sunbula sayili* o'tkazilish o'rni va tarixiga ko'ra Namangan viloyati Chust tumanining *Sunbul siyoh ziyoratgohi*, ya'ni agionimi bilan bog'liq. Sayil haqida xalq orasida rivoyatlar ham tarqalgan. Ana shunday rivoyatlardan biri ziyoratgoh va Sunbul sayili haqidagi "Sunbul siyoh" rivoyatidir.

Rivoyatda aytilishicha, Xoja Abdurahmon hazratlari mug'lar tomonidan ta'qibga uchrab, Qizlar buvim ko'magida mazkur soyga kelib, Allohdan poklanish uchun panoh so'raganlarida, parvardigorning inoyati, qudrati bilan ilohiy g'or va uning atrofida hazratning jarohat suvlaridan sunbul siyoh paydo bo'lgan emish. Sunbul Qizlar buvimning soch tolalaridan yodgorlik emish. Ayrim rivoyatlarda esa sunbul Bibi Fotima onamizning sochlari deb talqin etiladi.

Sayilgohdagi ilohiy g'or, uning atrofidagi gilamdek to'shalgan sunbulzor, zilol suvli buloq tabiatning mo'jizaviy in'omlaridir [Исмоилов, Абдусаломов, 2006: 75-77]. Sunbul sayillarida ommaviy xalq o'yinlari, kurash, askiya, she'rxonlik bo'ladi, kuy-qo'shiqlar ijro etiladi. Mo'tabar otaxon-u onaxonlarning pand-nasihatlari tinglanadi. Sho'rolar tuzumi davrida Sunbul sayili 1-may Mehnatkashlarning xalqaro birdamlik kuni bayrami soyasida, ya'ni 2-may kuni nishonlab saqlab qolingan.

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Do'sti Xudo ziyoratgohida ayollar ishtirokida bahor kirib kelishi vaqtida Respublikamizning boshqa yerlarida uchramaydigan *Arg'uvongul* yoki mahalliy aholi tilida *Guli armug'on* deb ataluvchi sayil o'tkaziladi. Bahorning erta yoki kech kelishiga qarab, mart yoxud aprel boshlarida arg'uvon gulining pushti rangda ochilishi marosimiy tarzda



bayram qilingan va qishloq ayollari tomonidan maxsus taomlar tayyorlangan [Аширов, 2007: 101].

Bayramlar tadqiqiga doir manbalarda gul bayramlarining quyidagi ikki turi ajratiladi:

- 1) an’anaviy gul bayramlari;
- 2) zamonaviy gul bayramlari [Қорабоев, 1991: 93].

Gul bayramlarining har ikki turi bir-biriga uzviy bog‘liq. Bu bayramlar maqsad-mohiyatiga ko‘ra umumiy bo‘lsa-da, kelib chiqishi, nishonlanish vaqti va shakliga ko‘ra farqlanadi. Xususan, an’anaviy gul bayramlari bahor faslida tabiiy gullar ochilgan vaqtda sayilgohlarda tabiat qo‘ynida nishonlanadi. Shuningdek, an’anaviy gul bayramlari sayillar deb atalgani holda, turli hududlarda ma’lum gulga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy gul bayramlari XX asrning 50-yillarda shakllangan bo‘lib, yoz faslida, asosan, Namanganda avgust oyida o‘tkaziladi.

Gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar nomlanish tamoyili va motiviga ko‘ra umumiy bo‘lib, qanday gulga bog‘liqligiga nisbat berish asosida atalgan. Bunday geortonimlarga gul nomlarini, xususan, bahoriy gul nomlarini ifodalovchi *boychechak*, *sunbul*, *lola* apellyativlari lug‘aviy asos bo‘lgan: *Boychechak sayili*, *Sunbula sayili*, *Lola sayili* kabi. Chunonchi, o‘simlik nomini ifodalovchi *sunbul* so‘zi gidronim, agionim, geortonim, qolaversa, bibliionim uchun lug‘aviy asos bo‘lgan: *Sunbul buloq* (gidronim), *Sunbul mozor* (nekronim), *Sunbula sayili* (geortonim), “*Sunbuli siyoh*” (biblionim) kabi.

Ko‘rinadiki, gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar tuzilish modeliga ko‘ra ot+ot modelida bo‘lib, gul nomi va bayram turini ifodalovchi *sayil* indikatoridan tarkib topgan: *boychechak sayili* > *Boychechak sayili*; *sunbul sayili* > *Sunbul sayili*; *lola sayili* > *Lola sayili* kabi.

O‘zbek tilida “*sunbul kabi go‘zal qiz; jozibali, yoqimtoy*”, “*xushbo‘y, guldek go‘zal qiz*” kabi onomastik ma’nolarga ega *Sunbul // Sumbul, Sunbuloy // Sumbuloy, Sunbula* kabi antroponimlar ham bor [Бегматов, 1998: 399-400].

Demak, gul nomlari *sayil* geortonimik indikatorini vositasida bayram nomlariga aylangan.

Gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar o‘zbek xalqining asriy, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlari, an’analarining mahsuli sifatida lingvokulteremalardir. Gul sayillarini ifodalovchi lingvokulteremalar o‘zbek xalqining milliy bayramlarining bardavomligini ta’minlash, avlodlardan avlodlarga yetkazish, odamlarni birdamlikka, hamkorlikka, ezguliklarga chorlash kabi madaniy, ma’naviy, estetik va gul sayillarini bir-biridan farqlash kabi lisoniy vazifalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://qalampir.uz/news>
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – IV j.



3. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007.
4. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998.
5. Исмоилов М., Абдусаломов А. Тошқўрғон ва Машҳад қишлоқлари тарихидан лавҳалар. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2006.
6. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
7. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
8. Пещерева Е.М. Праздник тюльпана (лола) в селе Исфара Кокандского уезда // Сборник В.В.Бартольд. – Ташкент, 1927.
9. Сухарева О.А. Празднеств цветов у равнинных таджиков (конец XIX – нач. XX вв.) // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986.
10. Тульцева Л.А. Современные праздники и обряды народов СССР. – М.: Наука, 1985.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 8-ж.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774